



SALOMATLIK – TUMAN BOYLIK

ЗДОРОВЬЕ НАРОД – БОГАТСТВО СТРАНЫ

# PEDIATR

№ 17-18 (935-936)  
9-noyabr, chorshanba  
2022-yilTOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI MEHNAT JAMOASI NASHRI  
ОРГАН ТРУДОВОГО КОЛЛЕКТИВА ТАШКЕНТСКОГО  
ПЕДИАТРИЧЕСКОГО МЕДИЦИНСКОГО ИНСТИТУТАGazeta 1974-yil  
mardan chiqsa  
boshlagan

## YARIM ASRLIK YO‘L – BILIM, TAJRIBA, MAS’ULIYAT

Bu yil institutimiz uchun yubiley yili hisoblanadi. Jamoasining kuchi dunyodagi eng ezgu maqsad – aholi salomatligini saqlashga qaratilgan o‘ziga xos, eng sara muassasaga samimiyl ehtirom so‘zlarini aytish uchun bayram sanasi ayni muddaodir.

1972-yil tashkil etilgan oliy o‘quv dargohimiz 50 yoshga to‘ldi. Bu qisqa muddat emas. Mazkur davr mobaynida ToshPTI o‘z ilmiy va moddiy – texnika bazasini mustahkamladi, mutaxassisliklar doirasini kengaytirdi.

Talabalarimizning institut quchog‘ida egallagan chuqur bilimlari esa ularga sohalaridagi muvaffaqiyatini ta’minladi. Bunda institut ahil jamoasining xizmati katta.

Oliy o‘quv yurtimiz bosib o‘tgan yo‘l O‘zbekiston hududidan olisda mashhur bo‘lgan ilmiy maktablarni shakllantirish, mamlakatning amaliy tibbiyotiga zarur bulgan turli mutaxassis, aholi sog‘lig‘ini saqlash masalalarini mahorat bilan hal qiluvchi shifokorlarni tayyorlashdan iborat. Bugungi kunda institutimiz tibbiy ta’limning eng yaxshi an’analarini saqlagan va o‘quv-ilmiy sohalarda innovatsiyalardan foydalangan holda tibbiyot oliy o‘quv yurtlari o‘rtasida munosib o‘rin egallab kelmoqda.



Xodimlarimizning pediatriya, bolalar nefrologiyasi, xirurgiyasi, revmotologiyasi, yurak qon-tomir kasalliklari patologiyasi sohalaridagi tadqiqotlari ko‘pchilikka tanish.

Institutimizning so‘nggi yillardagi ravnaqi, oliy o‘quv yurtlariaro hamkorlikning kengayishi alohida ta’kidlar ekanman, buni butun jamoamizning izchil va sidqidildan bajargan samarali harakatlarining natijasi deb bilmjan.

Shu yillar davomida ToshPTI o‘n minglab mutaxassislar yetishtirdi va yurtimizni ilmli va salohiyatli kadrlar bilan ta’minalashga katta hissa qo‘shdi.

Institutimizda muntazam ravishda turli davlatlardan kelgan talabalar tahsil olmoqda. Ustozlar-


ning chuqur kasbiy bilimlari va amaliy tajribasi, o‘quv dargohning an’analariga bo‘lgan hurmat va zamonaviy ilmiy-texnik baza mutaxassislarni yuqori darajada tayyorlash va tibbiyot rivojiga munosib hissa qo‘shish imkoniyatini yaratadi.

ToshPTI o‘z salohiyatini oshirish barobarida yana ko‘proq muvaffaqiyatlarni qo‘lga kiritishiga ishonaman.

Barchani bayram bilan muborakbod etib, sizlarga sog‘lik, omad, mamlakatimiz tibbiyoti manfaati yo‘lida bunyodkorliklar va muvafaqiyatlar tilab qolaman.

**B.T.DAMINOV,**  
*Toshkent pediatriya  
tibbiyot instituti rektori*

## TARIX BOSQICHLARI



**Tiklanish**

1971-yildan to 1986-yilgacha O'rta Osiyo Meditsina Pediatriya institutiga rektorlik qilgan professor Vali Majidovich Majidov o'sha kezlarda O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirining muovini va ToshMI "Yuqumli kasalliklar" kafedrasining mudiri edilar.

Ilk tiklanish davri rektor uchun ham, jamoa uchun ham juda qiyin kechgan. Axir, bir vaqtning o'zida 6 ta kursda o'qish boshlangan, AndMI, ToshMI, pediatriya fakulteti talabalari to'liq ToshPTI ga o'tkaziladi. Yana boz ustiga, shu yilda 708 nafar talaba o'qishga qabul qilinadi. Vali Majidovichning ishbilarmonligi, qattiqqo'lligi tufayli barcha – 40 ga yaqin kafedrada o'qish o'z vaqtida boshlanadi. Uchta masalada qiyinchilik bo'lib turardi: kadrlar, o'quv bazalari, darsliklar, o'quv qurollari. Institut huquqiy-moliyaviy jihatdan Moskvaga – sobiq SSSR SSV ligiga qarar edi. Har bir masalada Moskva dan "ruxsat" olinar edi. Ikkinchidan, shahardagi asosiy shifoxonalar ToshMI tomonidan band qilingan edi. Shuning uchun dastlabki davrda viloyat kasalxonalari ham baza vazifasini o'tadi.

Vali Majidovich 15 yil ichida katta ishlar qildilar. Institut oyoqqa turdi, o'zining mustaqil kattalar va bolalar uchun klinikalariga ega bo'ldi, anchagina mahalliy kadrlardan olimlar, o'qituvchilar tayyorlandi. U kishi har bir narsaga jiddiy yondoshar

edilar, ular uchun kichik, ikkinchi darajali narsa yo'q edi. Ishda oshna-og'aynigarchilik yot narsa hisoblanardi.

Rektor talaba sha'niga tegadigan, talaba haqqiga ko'z olaytirganlarni bilib qolsa, ularning holiga voy edi. Paxta mavsumida rektor talabalar barakiga kelganda, albatta, tozalik, talabalarning yeb-ichishi diqqat markazda bo'lardi. Juda adolatli, kezi kelgan da farzandini ham ayamas edilar.

Ikkinchidan, Vali Majidov har narsani o'z qo'li bilan qilgisi kelar edi. Ular Moskvadan hatto rom qiladigan jihozlar olib kelib, o'zlar ham rom yasar edilar.

Institutning paxta mavsumida ham obro'si juda baland edi. Ular Sirdaryo, Jizzax viloyatida juda hurmatli inson edilar. Ularning "Mikro karta" sxemasida paxta terish taklifi respublikada tatbiq qilingan edi.

Vali Majidov uchun boylikka hirs yet narsa edi. U bolalarini olim darajasiga yetkazdi. U kishi katta diplomat, siyosatchi ham edi. Institut foydasi uchun jonkuyar inson edi.

Vali Majidovichning institutga, xalqiga xizmati ulug' bo'ldi.

## ISLOHOTLAR



Saksoninchi yillar yarmida ToshPTIda saylov bo'lib o'tadi. Saylovda uch nomzoddan biri – hozirgi bolalar jarrohligi kafedrasi mudiri, professor, Rossiya FA muxbir a'zosi Aminboy Sulaymonov g'olib chiqadilar. Aminboy Sulaymonovichning yutib chiqishi uchun qator sabablar bor bo'lib, ulardan eng salmoqlisi – u insonning qator ijobiy hislatlarga ega ekanligi edi.

Aminboy Sulaymonov shunday inson edilarki, biror kishiga "yo'q" yoki "bo'lmaydi" degan so'zni ishlatmas, odamlarni ham oldida, ham ortidan sizlab gapirar edilar. Ular saylov yilida rektor vazifasini bajaruvchi lavozimida paxta mavsumida katta obro' qozonadilar.

Aminboy Sulaymonov rahbarlik kilgan davrida bolalar klinikasi ancha rivoj topdi, republika markazlari ochildi, yangi ma'muriy o'quv binosi ishga tushdi. ToshPTI chet ellar, ayniqsa, Yaponiya, Germaniya bilan aloqa qila boshladи, lekin ular rektorlik qilgan davrda mustaqillik sharofati bilan Ittifoq tarqab ketgach, institut oldida qator muammolar kelib chiqqandi.

O'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilishi va ona tili yana o'z mavqeini egallashi bilan bu sohada ko'p ishlar qilinishi zarur edi. Avvalo, ona tilimizda o'quv adabiyotlar tanqisligidan qiyinchiliklar yuzaga keldi. Eng muhimmi, asosiy islohotlar davri boshlangan edi.

## TARAQQIYOT

1997-yil yanvarda ToshPTI-ga rektor etib o‘zining kuchli tashkilotchilik qobiliyati bilan tanilgan “Akusherlik va ginekologiya instituti” direktori, professor Damin Asadov tayinlanadi. Ular birinchi galda tartib-intizomga katta e’tibor berdilar.

Har kuni tungi soat 10-11 gacha institut xodimlarining hujjatlarini o‘rganib chiqdilar. Kunduz kunlari kafedralarda, bo‘limlarda yurib ishlar bilan tanishib, ertalab soat sakkizdan institut hududida yoki klinikalarida bo‘lardilar. Dangasalikka o‘rgangan, ishini chala qiladiganlarni ayamadilar, goho bir kafedraga kunda 2-3 marta ham kelardilar.

Katta islohot xo‘jalikdan boshlandi, oshxonalar ta’mirlandi. Katta ma’muriy – o‘quv korpusidan chakka

o‘tib yotgan tom tunuka bilan qoplandi. Yangi rektorga Bekobod, Ohangaron, Andijon dan yordamlar kela boshladi, institutga kiraverish vestibul xorij andozasiga o‘ta boshladi. Kompyuter, televizorlar olina boshlandi. Institut ko‘rki kundan kun ochildi. Davolash ishlariga katta e’tibor qaratildi.

Damin Abdurahimovich davrida institut tezlikda xorijiy davlatlar bilan keng aloqaga chiqdi. 1997-yildan boshlab, ToshPTI va AKSh ning Sietl Pediatriya markazi o‘rtasida ilmiy hamkorlik o‘rnatildi va uzoq yillarga asoslangan kelishuv imzolandi. Bir necha xodimlar Amerikaga borib kelishdi. Amerika olimi professor Gepxard institutimizga kelib ma’ruzalar o‘qidi. Otolarinoringologiya



kafedrasи, Ko‘z kasalliklari markazi xorijiy davlatlar bilan hamkorlikda ishlay boshladi. Iqtidorli talabalar xorija chiqadigan bo‘ldilar. Yana bir narsa, yangi rektor ijtimoiy muhofazaga katta e’tibor berdi. Professor-o‘qituvchilar maoshida sezilarli o‘sish yuz berdi.

Xullas, Damin Abdurahimovich uzoq ishlamasalar-da, institut uchun ancha ijobiy ishlar qildilar.

## RAVNAQ

1999-yilda o‘sha payt O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Devonining yetachi maslahatchisi Anvar Valiyevich Alimov institutimizga rektor qilib tayinlandilar va 2009-yilgacha shu lavozimda ishladilar. Mazkur davrda institutimizda barcha oliy o‘quv yurtlarida bo‘lgani kabi ikki bosqichli (bakalavriat va magistratura) umumamaliyot shifokori tayyorlash boshlandi.

2000-2001-yildan 3 ta mutaxassislik: Pediatriya, Anesteziologiya-reanimatologiya va Oilaviy shifokor-

lik bo‘yicha ilk qaldirg‘och magistrlar tahsil ola boshladilar. Mazkur davrni yana institut ilmiy salohiyatning oshish davri, desak bo‘ladi. 1974-1975-yillarga qaraganda fan doktorlari va nomzodlari soni 2000-2001-yillarda deyarli 2,5 barobarga oshdi.

Shuningdek, xorij davlatlari o‘rtasida hamkorlik yana da jadallahdi. Janubiy Koreyaning Yonsey universiteti va ToshPTI o‘rtasida ilmiy-amaliy hamkorlik shartnomasi imzolandi. Qisqa muddat ichida universitetning tibbiyot fakulteti dekani va xodimlar



ToshPTIda tibbiyotning dolzarb masalalariga bag‘ishlangan ma’ruzalar o‘qishdi.

Institut klinikasida yuqori texnologik muolajalarni o‘tkazish xayrli an'anaga aylanib qoldi.

## TOSHTPTINING 50 YILLIGI

*Institut O'rta Osiyo meditsina pediatriya instituti nomi bilan 1972-yilda ochilgan va 1989-yildan ToshPTI deb nomlanadi, chunki avvallari institutimizda O'rta Osiyo Respublikalari va Qozog'iston uchun shifokor-pediatrilar tayyorlanardi. Keyinchalik esa faqat O'zbekiston Respublikasi uchun mutaxassislarni tayyorlaydigan bo'ldi. Institutning "Pediatr" ro'znomasi institut hayotini doimiy ravishda yoritib turadi.*

*Institutimizda o'tgan 50 yil ichida 40 000 ga yaqin yuqori malakali shifokor tayyorlandi.*



### O'quv ishlari

Institutda 37 kafedra bo'lib, ularda 590 nafar professor-o'qituvchilar faoliyat yuritadi. Shundan 94 nafari fan doktori, 213 nafari fan nomzodlari. Institut tarkibida bolalar shifoxonasi mavjud. 1998-yilda institut qoshida "Shifokorlar o'quv markazi" ochilgan.

Institutda 5 ta fakultetda, jumladan, Oliy ma'lumotli hamshiralik ishi, Tibbiy pedagogika va davolash ishi, 1-pediatriya va xalq tabobati, 2-pediatriya va tibbiy biologiya, Xalqaro fakultetlarda 5 275 talabala o'qydi. 2000-yildan boshlab bugungi kunda magistraturaning birinchi kursida 40 nafar, ikkinchi kursida 60 nafar va uchinchi kursida 177 nafar magistrlar ta'lim ola-di. Magistrlar 35 ta mutaxassislik bo'yicha tahsil olishmoqda.

Institut qoshida 1997-yilda litsey ochilgan bo'lib, unga 1999-yilda "Akademik litsey" maqomi berilgan.

Bugungi kunda institutimizda ta'limning yettita ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrular hamda 31 ta mutaxassisliklar bo'yicha klinik ordinotorlar va 35 ta mutaxassislikda magistratura orqali tor mutaxassislar tayyorlanmoqda.

1999–2022-o'quv yillardan uch yo'nalish bo'yicha oliy ma'lumotlari bilan hamkorlik shifokorining 0-16 yoshgacha

motli hamshira tayyorlash bo'limi faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Institutimiz Respublika sog'lijni saqlashning birlamchi bo'g'ini, tez tibbiy yordam ko'rsatish stansiyalari, respublika, shaharlar va viloyatlar kasalxonalar, ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy markazlar uchun oilaviy shifokorlar va mutaxassislarni tayyorlamoqda.

Yangi Davlat ta'lim standarti asosida Oilaviy shifokor malakaviy tavsifnomasi ishlab chiqilib, unga mutanosib ravishda namunaviy o'quv dasturlari ishlab chiqilgan.

Oilaviy shifokorlarni tayyorlash dasturini amalga oshirishda I-II blok fanlari o'quv dasturlari qayta ko'rib chiqilib, vertikal va gorizontal integratsiyasi, kasbiy tavsifi maqsad va vazifalariga mutanosiblikka keltirilgan.

Bo'lg'usi shifokorlar, jumladan pediatrlarning mutaxassisliklari bo'yicha pediatriyadagi amaliy ko'nikmalarini shakllantirish hamda mustahkamlash maqsadida I kursdan "Tibbiyot kasbiga kirish" fani kiritilib, erta yoshdagi sog'lom va bemor bolalar parvarishi ko'nikmalar bilan talabalarni bevosita tanishtirish boshlanadi.

VI kurslar uchun o'quv jarayoni sog'lijni saqlashning ambulatoriya-poliklinika sharoitida – amaliyotga uzviy bog'liq holda o'tkaziladi.

Institut qoshida "Salomatlik" loyihasi dasturi doirasida shahar shifokorlar o'quv markazi tashkil etilgan bo'lib, eng zamonaviy texnik jihozlar, tibbiy asboblar, chet el adabiyotlari bilan ta'minlangan bu markazda talabalar uchastka shifokorining 0-16 yoshgacha

bo'lgan bolalar bilan ishslash va davolash asoslarni o'rganadilar.

Muayyan fan bo'yicha yakuniy nazoratning yozma ish va og'zaki javob shaklida olib borilishi talabaning nutq savodini rivojlan-tirishga qaratilgan. Klinik kafedralarda o'zlashtirish darajasini nazorat qilishning klinik fikrlash varaqasi hamda OSCE tizimi orqali olib borish joriy etilgan. Kiritilgan yangi uslubiyotlar talabada klinik fikrlashni shakllantirib, tashxisot olgaritmi, tashxisini umum qabul qilingan tasnif asosida tuzish, davolash standartlari ko'nikmalarini o'zlashtirishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Institutning o'quv, ta'lim sifatini nazorat qilish, ichki nazorat va monitoring bo'limlarda ijro intizomi, o'zlashtirish daroji hamda pedagoglarning o'quv yuklama-lari haqidagi ma'lumotlar bazasi yaratilgan. Ma'lumotlarning davriy ravishda tahlil etib borilishi ta'lim jarayonini tashkil etish uslubi va mexanizmlarini takomillashtirishga xizmat qilmoqda.

Bilim berishning eng ilg'or uslublarini tatbiq etishga munta-zam malaka oshirish orqali erishish mumkinligi sir emas. So'nggi yillarda institutimizning malaka oshirish kurslarida tahsil olgan pedagoglar ulushi 98 % ni tashkil etdi. Bu yo'nalishda olib borilayotgan ishlar natijasi o'la-roq hamkorlik geografiyasini xorijiy davlatlarning yetakchi oliygochlari hisobiga kengayib bormoqda. Oliy tibbiy ta'limda ta'lim jarayonini zamonaviy ilmiy-uslubiy daraja-da tashkil etish maqsad qilib ol-ningan Pedagoglar Universitetida

xodimlarning malakalari va pedagogik mahoratlarini oshirish orqali ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy etish ta‘lim jarayonini yangi bosqichga ko‘tarishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Pedagoglar Universitetining 1 sikl mashg‘ulotlari 10 ta darsdan iborat bo‘lib, “Oliy tibbiyat mакtabida dars berishning ilg‘or uslublari” mavzusida olib boriladi. Institutning Attestatsiya va moddiy rag‘batlantirish hay’ati tomonidan “Pedagogning kasbiy mahorati darajasini belgilash mezoni”da pedagogning malaka oshirish fakultetlari va kurslarida o‘qiganligiga salmoqli o‘rin berilgan.

Institutda har bir kafedrada iqtidorli talabalar bilan ishlaydigan mas‘ullar bor. Har yili 12 ta mutaxassislik fanidan talabalarning Respublika fan olimpiadalari bo‘lib o‘tadi. Bunda 350–400 tagacha talaba qatnashadi. Bularidan Respublika bosqichida 7–8 ta fan dan g‘oliblikni qo‘lga kiritishdi. 1998–2022 yillarda o‘tkazilgan talabalar Respublika fan olimpiadasida 213 ta talaba Respublika bosqichida qatnashib, shulardan 127 tasi sovrindor bo‘lishdi.

Shu yillar mobaynida institutimizning 8 ta talabasi Prezident stipendiyasini qo‘lga kiritdi. 25 ta talabamiz Ibn Sino nomli, 5 ta talabamiz Islom Karimov nomli davlat stipendiyasiga, 3 ta qizimiz Zulfiya nomidagi va 4 ta yigitimiz Mard o‘g‘lon Davlat mukofotlari ga sazovor bo‘lishdi. Institutimiz ravnaqiga hissa qo‘shgan fidoyi ustoz-olimlarimiz nomidagi “Atoqli olimlar” stipendiyasiga iqtidorli yoshlarimizdan 104 tasi loyiq deb topildi. O‘zbekiston Vrachlar assotsiasiyasini stipendiyasini 7 ta talaba qo‘lga kiritgan.

Institutning hamma kafedralarida talabalar ilmiy to‘garaklari faoliyat ko‘rsatadi. Har yili institutning “Talabalar ilmiy jamiyat” tomonidan talabalar-

ning Respublika ilmiy-amaliy anjumani o‘tkaziladi.

Institut AQSh, Rossiya, Janubiy Koreya, Olmoniya va bir necha MDH davlatlari tibbiyat institutlari bilan o‘quv, ilmiy sohalarda hamkorlik qiladi.

Oliy o‘quv yurtimizning barcha kafedra va bo‘limlari kompyuterlar bilan va barcha o‘quv bazalari yagona simsiz tarmoq bilan ta’milangan.

2022-yil 3-oktabrdan institutimizda yangi “Ilg‘or texnologiyalar va strategik tashabbuslar markazi” tashkil etildi. Bu markaz sobiq innovatsiya markazining vorisi hisoblanadi.

Institutda kitob fondi 1972-yilda 42 340 dona bo‘lsa, hozirgi kunda kutubxonada 63 364 nomda 359 928 dona kitob bor. Shundan darslik va qo‘llanmalar 2 418 nomda 232 732 nusxani tashkil etadi. Davlat tilidagi o‘quv adabiyotlari 1 179 nomda 94 107 nusxa, xorijiy adabiyotlar 2 471 nomda 19 762 dona bo‘lib, maxsus xorijiy adabiyotlar o‘quv zalida saqlanadi.

### Ma’naviy va ma’rifiy ishlari

Yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy-madaniy an‘analariga, urf-odatlari hamda umumbashariy qadriyatlar ga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilmoqda.

1997-yildan boshlab “Ma’naviy va ma’rifat” Kengashi, “Ustoz-shogirdlar” Kengashi, 2021-yildan Tyutorlar, Xotin-qizlar maslahat Kengashi, Yoshlar Ittifoqi boshlang‘ich tashkiloti faoliyat yuritmoqda. Shuningdek, sport-sog‘lomlashtirish, ijodiy to‘garaklari, jumladan, minifutbol, basketbol, voleybol, shaxmat kabi 8 ta sport-sog‘lomlashtirish seksiyalari hamda “Nishona”, “Zukko kitobxon”, “Zakovat”, “Pediatri” teatr studiyasi, Tikuvchilik kabi

besh muhim tashabbus bo‘yicha institut va Talabalar turar joylarida 12 yo‘nalishdagi to‘garaklar tashkil etilib, bu to‘garaklarga qiziqishlari bo‘yicha talabalar jalb etilgan. Institut professor-o‘qituvchilari hamda talabalarini mahallalar va maktab yoshlari o‘rtasida, ularning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish uchun besh muhim tashabbus doirasida turli tadbirlar tashkil etmoqdalar. Maqsad – yuksak ma’naviyatli kompetentli tabalarni tarbiyalashdan iborat.

### Ilmiy ishlari

ToshPTI tomonidan 50 yil davomida Davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlari O‘zbekistonning fan va texnologiyalar hamda innovatsiyalar rivojlanishining asosiy dolzarb yo‘nalishlariga mos ravishda amalgalashtirilgan.

ToshPTI professor-o‘qituvchilari ilmiy-tadqiqot ishlarni “Bolalarda tug‘ma va orttirilgan kasalliklarning diagnostikasi, davolash va profilaktika usullarini takomillashtirish” mavzusida olib borishdi.

ToshPTIda ilmiy-tadqiqot ishlarni belgilangan muddatlarda yuqori saviyada bajarib kelishmoqda.

Masalan: 1990-yilda aspirantu ra bo‘limida izlanuvchilarining soni 20 nafar bo‘lgan bo‘lsa, 2022-yilga kelib ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-kadrlarni tayyorlash bo‘limida 215 nafar izlanuvchilar tahsil olmoqdalar.

So‘nggi 32 yil davomida 489 nafar institut xodimlari tomonidan 159 ta doktorlik, 330 ta nomzodlik va tibbiyat fanlari bo‘yicha falfasa doktori (PhD) ilmiy darajasi uchun dissertatsiyalar himoya qilingan.

Institutda 85 ta korxona (ilmiy tekshirish institutlari, ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyat markazlari va xususiy klinikalari va boshqa shifoxonalar) bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan.



### Davolash ishlari

Institutimiz tashkil etilgan yili klinikasi bo‘lmasan. O‘quv jarayoniga klinika zarur bo‘lgani sababli 1975-yilda maktab binosida moslashtirilgan kattalar bo‘limlari ochilgan. (Школа САМПИ)

1979-yilda Vazirlar Mahkamasing institut klinikasi qurilishi to‘g‘risida qaror chiqqan va hozirgi klinika uchun yer ajratilgan, so‘ngra qurilish ishlari boshlangan.

Klinikada 5ta 3 qavatli binda davolash diagnostika bo‘limlari joylashgan. Bundan tashqari 4 ta bir va ikki qavatli binolarda yordamchi bo‘lim va bo‘linmalar joylashgan.

Shu holda klinika 2013-yilgacha o‘z faoliyatini yuritgan.

2013-yili Maktab binosi (Школа САМПИ) buzib tashlanib, o‘rniga zamонави 80 o‘ringa mo‘ljallangan klinika qurilgan va o‘z faoliyatini boshlagan.

Hozirgi kunda klinika 18 ta yo‘nalish bo‘yicha bemor bolalarga tibbiy yordam ko‘rsatadi.

Klinika 340 o‘ringa mo‘ljallangan bo‘lib, tarkibida 17 ta tashxis qo‘yish va davolash, 10 ta yordamchi va 6 ta xo‘jalik, jami 33 ta bo‘limlarda ish olib boradi. 0 – 18 yoshgacha bo‘lgan bolalarga ko‘p tarmoqli tibbiy yordam ko‘rsatadi.

Klinikada institutning 13 kafedrasi joylashgan. Barcha profes-

sor-o‘qituvchilar davolash diagnostika ishida ishtiroy yetishadi.

Klinika xodimlari ichida 10 tasi tibbiyot nomzodi, 57 tasi oliy toifa-ga ega.

### Sog‘lomlashdirish va sport ishlari

O‘tgan davrlarda sport klubni va jismoniy tarbiya kafedrasi sport ustalari va ko‘plab razryadli sport-chilarni tayyorlagan. Talabalar o‘rtasida “Talabalar bahori sport haftaligi”, professor-o‘qituvchilar o‘rtasida “Salomatlik spartakiadasi”, sportning bir nechta turi bo‘yicha sport musobaqlari o‘tkazilib kelmoqda.

Ushbu institutda kichik olimpiada deb ataluvchi “Universiada” sport musobaqlarida talabalari-mizning qatnashish saviyasi yil sa-yin oshib bormoqda.

Hozirgi kunda ham Toshkent shahar OTM lari o‘rtasida o‘tkazilgan futbol, badminton bo‘yicha sport musobaqlarida institut termajamoasi a’zolari qatnashib, faxrli o‘rnlarni qo‘lga kiritib kelmoqdalar.

1973-yilda Toshkent viloyati, Bo‘stonliq tumanida “Pediatr” sport-sog‘lomlashdirish lageri ochilib, unda talabalar yoz oylarida hordiq chiqaradi 1996-yili shu tumanda “Qizil soy” yoqasida Xodimlar oromgohi tashkil etilgan. Unda har yili 5-6 smenada 300-350 xodim hordiq chiqaradi.

### Ma’muriy xo‘jalik ishlari

Institutning shunday yonginasida joylashgan TTJda 405 talaba yashaydi. 1 va 2 TTJda ma’naviyat xonalari faoliyat ko‘rsatadi. Bu yerda talabalar uchun barcha zarur sharoitlar yaratilgan.

So‘nggi 5 yillikda Axborot-re-surs markazi binosi, Simulyatsion o‘quv markazi qurildi, asosiy va yondosh o‘quv-ma’muriy binolar kapital ta‘mirlandi, zamonaviy talabga ko‘ra jihozlandi, institut tarixiga bag‘ishlab muzey tashkil etildi.



### Akademik litsey

Institut qoshida 1997-yilda ochilgan litseyga 2000-yildan “Akademik litsey” maqomi berilgan. Shu kungacha litseyni 1999 talaba tugatgan va hozirga kunda 350 talaba tahsil oladi. Litseyda talabalar kimyo va biologiya yo‘nalishda ta‘lim oladilar.

Bugungi kunda ToshPTI Akademik litseyi dunyoga tanilgan va dunyo havas qiladigan litseylardan biriga aylangan. Uning ko‘rsatkichlari dunyo miqyosida ham, respublikada ham ancha baland. Buni Juhon va Xalqaro fan olimpiadalarida o‘quvchilarning muvaffaqiyatli ishtiroyidan bilsa bo‘ladi. E’tiborli, mazkur litsey o‘quvchilari respublikamiz ta‘lim tizimi tarixida ilk bor Xalqaro va Juhon fan olimpiadalarida oltin medalga sazovor bo‘lishlaridir. Shu kungacha akademik litsey o‘quvchilari dunyoning turli davlatlarida bo‘lib o‘tgan fan olimpiadalarida yurtimiz sharafini munosib himoya qilib, jami 86 ta, jumladan 13 ta “oltin”, 25 ta “ku-mush” va 48 ta “bronza” medallari ni qo‘lga kiritishgan.

## ULARNING OXIRATLARI OBOD BO‘LSIN

“Bugun bormiz, ertaga yo‘q” degan qoidasimon maqol bor. Shunisi ham borki, “bugun”imiz bir kun yoki bir asr, balki undan-da ko‘proq davom etishi mumkin. Biz Toshkent pediatriya tibbiyot instituti bilan 50 yil yashadik, yo‘qdan bor qildik, jamaa bilan O‘rta Osiyoda yagona, mashhur tibbiyot institutini tashkil etdik. Bugun g‘ururlansak arziyi. Ammo bugun safimizda turib g‘ururlanishga loyiq bir qancha fidoiylarimiz hayotdan ko‘z yumganlar. Institut tarixida ularning salmoqli o‘rinlari bor.

O‘tayotgan yillar safida katta dargoh avlodlari ham o‘tib boradilar. Ularning yozgan kitoblari, ezgu amallari qoldadi, aytgan so‘zları ma‘lum davrgacha eslab yuriladi. ToshPTI ilm dargohi faoliyatiga ham 50 yil to‘ldi, avval kelgan katta olim-u shifokorlar, zabardast pedagoglarimizning ba‘zilari olamdan o‘tib ketdilar. Shu aziz insonlar haqida kamtarona fikrlarimni o‘rtoqlashmoqchiman.

Institut yangi ochilgan paytdagi rektor Vali Majidov atrofida o‘quv ishlari prorektori, professor marhum Sulton Dalimov, ilmiy ishlari prorektori Orxon Sirojiddinov, professor Faxridin Nazarmuhamedov, xo‘jalik ishlari prorektori Muxsiddin Kamolov, o‘quv ishlari bo‘lim boshlig‘i, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan o‘qituvchi, dotsent Said Rumi, kasaba qo‘mitasi raisi Saidvaqqos Kenjaboyevlar shijoat ko‘rsatib, katta ishlarni bajardilar. Muntazam o‘tkaziladigan kichik rektorat majlisi kun tartibida goh o‘quv ishlari, goh klinik bazalar, yotoqxonalar muammolari, darsliklar, omborxonalar, kutubxona, paxta mavsumi va shu kabilar masalalar ko‘rilardi.

Sulton aka juda operativ va kirishimli kishi bo‘lib, kamchilikka yo‘l qo‘ygan dangasa, yolg‘on gapi-ruvchilarni yoqtirmas va tap tortmay tanqid qilardi. U uchun talaba hayotiga bog‘liq katta yoki kichik narsa bo‘lmassi. Laganbardorlarni yomon ko‘rardi. Sulton aka faoliyatining ikkinchi yilidanoq xonasida 6 ta radio-lashtirilgan ma‘ruza zali pulti bor edi. Istalgan vaqtida istalgan zaldagi ma‘ruzani eshitib, “distatsion retsenziya”



qilardi. Ma‘ruza zaliga lektor-pedagogdan oldinroq kirib, orqa qatorda talabadek, xalatda o‘tirib ma‘ruzani tinglardi. Keyin xonalariga 5-6 professorni chaqirib o‘z fikrlarini aytib, konsilium qilardi. Hayotda askiyani, haqiqiy do‘stlikni qadrlar, yaxshi duotor chalar va ashulalar aytib, davralarни qizitardilar. Sulton aka ToshPTI tarixida “Chaqnagan prorektor” nomini oldi.

Institutimizning moddiy ta’mi-notida Muxsiddin Kamolov akaning roli katta bo‘lgan. Uning avval ray-ijroqo‘m raisi lavozimida ishlagani moddiy ta’minot masalasida institutga juda qo‘l keldi va uning sa‘y-harakati bilan bir yilda institut moddiy ta’mi-noti oyoqqa turib oldi.

Dekanat faoliyatini Faxriddin aka Nazarmuhamedov boshqarardi. Hayotda quvnoq, hazilkash bo‘ishiga qaramay, ishga juda fidoiy, madaniyatli inson edi, kurs dekanlarini astoydil va halol ishlashga, kuyunchaklikka ko‘p o‘rgatardi, har kuni soat 18:00 gacha dekanatdan siljimasdi. San’atni sevar, hassos edi.

Institutning og‘ir kunlarida o‘quv bo‘limining boshlig‘i tibbiy fizika kafedrasи mudiri, dotsent Said Rumiy katta ishlarni qilgan. Dastlabki yillarda ayrim ToshPTI klinik bazalari Toshkentning uzoq hududlarida hamda viloyatning Qibray, Toshkent tumanlarida joylashgan edi. Ma‘ruza zallari, o‘quv xonalarida muammolar ko‘p bo‘lsada, Said aka barini hol qilar, o‘quv jarayonini tekshirib borardi.

Hozirgi inspeksiya rolini ham birgina o‘zi bajarardi, ular o‘quv jarayonini takomillashtirishni boshlab bergan inson.

Boshqa fidoiy xodimlar profes-sorlar Otaulla Oqilov, San’at Azizova, Vali Alimov, Umid Zufarov, Vilya Mazgutovlarni, dotsentlar Sunnatulla Asomov, Yunus Boltayev, Aziz Alfe-tayevlar ham institut tarixida alohida o‘ringa ega. Otaulla aka tibbiy biologiya va genetika kafedrasи mudiri lavozimida ishlagan bir vaqtida partkom sekretari, dekan, “Pediatr” gazetasi muharirini ham bo‘lgan. Jamoatchilik ishlarida ham sergak edi. Qator adabiy risolalar, monografiyalar, darsliklar muallifi, 5 nafar fan doktori, 10 ga ya-qin fan nomzodi tayyorlagan. Beruniy nomidagi Davlat mukofoti sovrindori edi.

Normal fiziologiya kafedrasи mudiri professor Umid Zufarov uzoq yillar 1-fakultet dekanı, xodimlar kasaba qo‘mitasi raisi lavozimida ishla-di. U normal fiziologiya kafedrasini oyoqqa qo‘ygan, respublikada birinchi bo‘lib o‘zbek tilida “Odam fiziologiyasi”, “Bolalar fiziologiyasi” darsliklarini yozgan inson.

Institutimizning faxli insonlari dan biri Talat Saydaliyevich Ag-zamxo‘jayevning xotirasi ham institut talabalari, xodimlari, hamkasblari qalbida doim yashaydi. Talatxonning tabassumli chehrasi, donoligi, e’tiborli shifokorligi, sadoqatli do‘st bo‘la olishi, shirinsuxanligi uni tanigan insonlar qalbida yashayveradi.



Vili Mazgutov haqida ham faqat iliq so‘zlar aytish mumkin. Bag‘ri keng, sadoqatli, talabalar va talabalik davridan to‘ umrining oxirigacha bo‘lgan umrini ToshMI va ToshPTI uchun bag‘ishlagan inson. U haqni nohaqdan, samimiyni nosamimydan to‘g‘ri ajratar, halol insonlarni noo‘rin aziyat chekishidan qo‘lidan kelgancha himoyalardi. Birinchi bo‘lib klinik farmakologiya kafedrasini ochib, uzoq yillar unga mudirlilik qilgan.

Shuningdek Asrorxo‘ja Zokirxo‘jayev haqida ham faqat yaxshi fikrlarni aytish mumkin. U institut tashkil bo‘lgan birinchi kundan dars bergen va jamoa ishlarini bajargan, xo‘jalik ishlariga yordamchi, kattalar klinikasi, keyin bolalar klinikasida bosh shifokor, xo‘jalik ishlari bo‘yicha prorektor, yuqumli kasalliklar kafedra si mudiri lavozimlarida ishlagan, tashkilotchilik qobiliyati baland bo‘lgan.

Dastlabki yillarda institutda partiya tashkiloti uning birinchi kotibi, filosofiya kafedrasи mudiri, dotsent Narimon Eshmetov rahbarligida institut hayotida ko‘p faollik ko‘rsatgan. Xodimlar kasaba qo‘mitasining saylangan birinchi raisi, dotsent Rustam

Qurbanov o‘ta bosiq, kamgap, beozor inson bo‘lib, tiklanish yillarda faol xizmat qilgan. Ulardan keyingi rais Vafojon Qodirov haqida ham iliq so‘zlar aytish mumkin.

Institutimizning ilmiy ishlar prorektori, biokimyo kafedrasи mudiri lavozimida ishlagan O‘zRFA muxbir a’zosi Aleksandr Nikolayev dunyoga mashhur olim bo‘lgan. Bir necha monografiyalar, 500 dan ziyod ilmiy maqlolalar muallifi, O‘zbekistonda biokimyo, immunologiya fanlari asoschilaridan biri. ToshPTIda o‘nlab fan nomzodlari va doktorlarni yetishtirgan fidokor olim. U boshlagan ilmiy an‘anani shogirdi – professor Rustam Sultonov davom ettirgan.

Institutimizda katta yoki jamoatchi lavozimlarda ishlamagan bo‘lsa-da, o‘z fikrlari, o‘z so‘zları bilan ahamiyatli, atoqli olimlarimiz bo‘lgan. Ular umrlarining oxirigacha o‘z e‘tiqodiga sodiq qolgan BPK (Gospital Pediatriya) mudiri Sayfi Shamsiyev, Gospital terapiya kafedrasи mudiri Omonulla Bahodirov, Bolalar jarrohlik kafedrasи mudiri Karim Tohirov, Jamoatchilik salomatligi kafedrasи professori Nai-

ma Mahmudovna, Pediatriya kafedrasи mudiri Salomat Nazarova, Gospital pediatriya kafedrasи mudiri Irina Bodnya, Teri-tanosil kafedrasи mudiri Karim Sulaymonovlardir. Ular bilim berishdek oliyjanob jarayondagi shaxsiy yondashuvlari bilan ajralib turardilar.

Vatan urushi davrida armiya bosh mutaxassisidarajasida ishlagan, uzoq yillar institut “Faxriylar kengashi” rassi, “Harbiy dala xirurgiyasi” kursining mudiri lavozimlarda umrining oxi rigacha xizmat qilgan dotsent Karim G‘ofirovning ishlarini alohida ta’kidlash mumkin. Adolatli, hayotning bosh mezonini intizom deb bilgan, bu inson talabalar va institut xodimlari qalbida uzoq yillar qolajak.

Biz bu olimlar oldida doim qarzdormiz. Ular ruhi bizni ilmiga, adolatga yo‘llaydi. San’atxon Azizova, Bosit Oxunjonov, Erkli Xodiyev, O’tkir Sharapov, Po‘lat Hakimov, Otaqul Ergashev, Dilmurod Muhammedov, G‘ani Boqiyev, Rashodxon Alavi, Komil Fozilov kabi halol mehnatlari bilan talabalarini to‘g‘ri yo‘iga boshlaydigan, bilim sari yetaklaydigan mohir pedagoglar, dekanlar ishladilar. Mikrobiologiya kafedrasи mudiri 1-fakultet dekanı, professor Nozim Zokirov, allergolog olim, Patologik fiziologiya kafedrasи mudiri Mardon Xaqberdiyev, dotsent Abdullo Abduazimov, kurs dekanlari lavozimida ishlagan dotsentlar To‘lqin Buzrukov, Xudoyberdi Rahmonov, Zayniddin Saidaliyev, ilmiy kengash kotibasi Lola Alimova, jamoatchi dekan va boshqalar jamoamiz qalbidan o‘chmas o‘rin olgan ustozlardan.

Umr charxpalak. Kechagi tiriklik – bugungi xotira. Jamoamizdan o‘tganlarga Alloh rahmati yog‘ilsin. Ularning pok ruhlari bizga doim madadkor bo‘lsin.

**E.O.TURSUNOV,  
Faxriylar kengashi raisi**